Volume 2, Issue 1

BAHOVUDDIN NAQISHBAND TARIQATLARI

Hakimov.SH
TATU Samarqand Filiali Kompyuer Injinering Fakulteti KI23-01 guruh talabasi

Annotatsiya: Naqshbandiya tariqatining umuminsoniy g‘oyalar, ma’naviy kamolot, botiniy poklikni targ‘ib etishi uning dunyoda keng tarqalishiga olib keldi. Uning muxlislari bir necha million kishini tashkil etadi.

Abstract: Naqshbandi sect's promotion of universal ideals, spiritual maturity, and inner purity led to its wide spread in the world. His fans number several million.

Аннотация: Продвижение сектой Накшбанди общечеловеческих идеалов, духовной зрелости и внутренней чистоты привело к ее широкому распространению в мире. Его поклонников насчитывается несколько миллионов

Naqshbandiya tariqati. Uning ikkinchi nomi Xo’jagon yo’nalishi bo’lib, u shahar va shahar atroflarida rivojlangan va xalq orasida keng tarqalgan. Bu oqimga Xo’ja Yusuf al-Hamadoniyning mashhur shogirdi Xo’ja Abdulxoliq al-G’ijduvoniy (v. 1179 yoki 1220 y.) murshidlik qilgan. Keyinchalik bu oqimga Xo’ja Bahouddin Naqshband (1318-1389) murshidlik qilgan va shu davrdan e’tiboran Naqshbandiya tariqati butun islom olamiga tarqala boshlagan.
Osiyo zaminida eng keng tarqalgan tasavvuf tariqatlaridan biri Naqshbandiyadir. Uning haqiqiy asoschisi Bahouddin Naqshband bo’lib, u Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon qishlog’ida dunyoga keldi. Bahouddin Naqshbandni yoshligida Xojagon tariqati shayxlaridan Muhammad Bobo-yi Samosiy ma’naviy farzandlikka qabul qildi. Bir muddatdan keyin Samosiy uning tarbiyasini Amir Kulolga topshirdi. Shu bilan birga Bahouddin Naqshbandning haqiqiy shayxi – uvaysiya yo’lida tarbiyalagan Abdulxoliq G’ijduvoniy hisoblanadi. Ma’lum muddat Samarqandda yashab, u yerdagi shayxlarning suhbat va tavajjuhlariga musharraf bo’ldi. Amir Kuloldan xalifalikni olgach, Qosim shayx, Xalil ota va Mavlono Orif kabi Yasaviya shayxlarining huzurida ko’p yillar qolib, ulardan ilmu fayz olishga muyassar bo’ldi. Ikki marotaba hajga borib kelgan Bahouddin Naqshband hayotining oxirgi yillarini Buxoroda o’tkazdi. Islom olamida juda katta obro’-e’tiboriga ega bo’lgan Naqshbandning hayoti manoqiblarga to’la bo’lib, bugungacha uning hayoti va tariqatini ifodalovchi juda ko’plab asarlar bitilgan. Shulardan, Faxruddin Ali ibn Husayn Vo’iz Koshifiyning «Rashahot ayn al-hayot» risolasi Naqshbandiya tariqati shayxlari haqida keng ma’lumot beradi. Naqshbandiyaning silsilasi ikki boshqa-boshqa shahobchalar orqali hazrat Ali va hazrat Abu Bakrga borib yetadi. Mashoyix silsilasiga qaraganda, bu tariqat boshqa ba’zi tariqatlar bilan aloqador ekanligi va shunga ko’ra o’sha davrda farqli nomlar bilan atalgani ma’lum bo’ladi. Chunonchi, hazrati Abu Bakrdan Boyazid Bistomiyga qadar Siddiqiya, Bistomiydan Abdulxoliq al-G’ijduvoniyga qadar tayfuriya, G’ijduvoniydan Bahouddin Naqshbandga qadar xo’jagoniya, Naqshbanddan Xo’ja Ubaydulloh Ahrorga qadar Naqshbandiya, Xo’ja Ubaydulloh Ahrordan Ahmad as-Sirhindiyga qadar Naqshbandiya-ahroriya, «Mujaddidi alfi soni» nomi bilan mashhur Ahmad as-Sirhindiydan Shamsiddin Mazharga qadar Naqshbandiya-mujaddidiya, Shamsiddin Mazhardan Mavlono Xolidiy Bag’dodiyga qadar Naqshbandiya-mazhariya, Xolidiy Bag’dodiydan keyin esa Naqshbandiya-xolidiya deya tilga olingan

Naqshbandiya tariqati quyidagi to’rt tamoyil asosiga qurilgan: 1) shariat bilan zohirni poklash; 2) tariqat bilan botinni poklash; 3) haqiqat bilan qurbi ilohiyga erishmoq; 4) ma’rifat bilan Allohga erishmoq.

Bundan tashqari yana o’n bir asos-tamoyil ham borki, Naqshbandiya tariqatiga kirgan har bir darvish unga rioya qilishi talab qilinadi. Abdulxoliq al-G’ijduvoniy ishlab chiqqan bu tamoyillarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Xush dar dam (har nafasda hushyor bo'lish) – g'aflatga tushmaslik, har lahza Allohni eslash; har nafas olish-chiqarish chog'ida Allohni zikr qilish, agar g'aflatga tushsa, istig'for aytish;
2. Nazar bar qadam (qadamga nazar solish) – solik qaerda bo'lishidan qat'iy nazar, yurayotganida oyoq uchiga qarab yurishi lozim, toki qalb ko'zi va nazari bo'lmag'ur manzaralarga qarashdan xalos bo'lsin. Shunda ma'naviy safarda ro'para keladigan tahlikalar tezda oshib o'tiladi. U tamoyil kamtar bo'lish va mavjud holatga shukur qilishni o'zida mujassam etadi;
3. Safar dar vatan (vatanda, o'z yerida turib safar qilish) – solikning yomon ahloqdan yaxshi xulqqa, bashariy sifatlardan ilohiy sifatlarga yo'nalishi. Darvish bir murshidi komil topgunga qadar jismonan sayohat qilishini bildiradi. Naqshbandiylar fikricha, sayru suluk chog'ida solikni umidsizlikka tushirib, qiyinchilik keltirib chiqargani uchun murid murshidi komil topgach sayohat qilmasligi maqsadga muvofiqdir. Bu tamoyil sayru suluk martabalarini bosib o'tishni o'zida mujassam etadi;
4. Xilvat dar anjuman (jamoat ichida turib yakkalanish) – zohirda xalq bilan, botinan Haq bilan birga bo'lish. Solik moddiy borlig'i bilan xalqqa aralashib, turli bashariy va ijtimoiy faoliyatlarda qatnashib, hayot talab qilayotgan amallarni ijro etayotib, qalban doimo Allohning huzurida ekanini bir lahza bo'lsa-da, esdan chiqarmasligidir.

Bahouddin Naqshband (Muhammad binni Muhammad Bahouddin an-Naqshband al-Buxoriy) (1318-yil, Chig'atoy ulusi, Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog'i — 1389-yil, Temuriylar imperiyasi, Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon qishlog'i) — mashhur avliyo, naqshbandiya tariqatining asoschisi. Bahouddin yoki Xoja Bahouddin, Balogardon, Xo'jai Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan ham mashhur.

Tug'ilgan joyi va kelib chiqishi: U tug'ilgan qishloq Qasri Hinduvon (keyinchalik Bahouddin Naqshband sharafiga Qasri Orifon) deb atalgan. Uning oilasi va farzandlari to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Lekin Bahouddin Naqshband Muhammad payg'ambar avlodlariga mansub sayyidzodalardan ekanligi qayd etilgan va ota tomondan 11-imom Imom Xasan al-Askariyning ikkinchi o'g'li Sayyid Ali Akbarni avlodi hisoblanadi. Otasi Muhammad Buxoriy to'quvchi hamda o'yma naqsh soluvchi (naqshband) bo'lgan. Bahouddin Naqshband taqdirida bobosi Sayyid Jaloliddin Buxoriyning alohida xizmati bor. U sufiylar bilan yaqin aloqada edi. Shu sababli nabirasida ilohiyotga katta qiziqish uyg'otdi.

Naqshbandiya xojagon tariqati negizida paydo bo'lib, Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy qarashlarini omuxta etdi, ularga yangi ruh berib rivojlantirdi. XV—XVIII asrlarda savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan shahar aholisi hamda ko'chmanchi chorvador aholi orasiga keng yoyildi. Naqshbandiya ta'limotining asosida "ko'ngil xudoda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'lsin" ("dil ba yoru, dast ba kor") shiori yotadi. Naqshbandiyada pir-u muridlik qoidalari hiyla osonlashtirilgan, sirtdan turib e'tiqod qo'yish, imon mustahkamligi, Haqtaologa sidqidildan itoat etish, ixlos va ma'naviy kamolot asosiy o'rin egallaydi. Rasm-rusumlar, odatlarni ko'r-ko'rona ado etish, riyo, soxta dindorlik qoralanadi. Axloqiy poklik, qanoatli, sabrli bo'lish, ixtiyoriy faqirlik bilan Allohga intilish yuksak fazilat hisoblanadi. Naqshbandiyada odamning qadri mansabi, boyligi bilan emas, ma'naviy komilligi bilan o'lchanadi. Naqshbandiyada hunar, kasb egallab, o'z mehnati bilan halol luqma yeb yashash talab qilinadi, tilanchilik, darbadarlik bilan kun kechirish sufiy uchun isnod sanaladi. Qul, xizmatkor saqlash, o'zganing mehnatidan foydalanish ham man etiladi. Naqshbandiyaning yuqoridagi shiori tarkidunyochilikka, tekinxo'rlikka qarshi qaratilgan. Naqshbandiyada manmanlik, sufiy, shayxman deb kerilish, shovqin-suron ko'tarib zikru samo' bilan odamlar diqqatini o'ziga qaratish qoralanadi. Naqshbandiyada asosiy talab — qalbni dunyo g'uborlaridan tozalash, o'z nafsi bilan kurashib ruhda charog'onlik topish, qalbda Alloh nomlarini naqshlab borish usullari ishlab chiqilgan. Zikri xufiya (yashirin zikr tushish) shunga xizmat qilgan. "Tashqaridan xalq bilan, ichkaridan Haq bilan bo'lish", har bir nafasni Xudo yodi bilan chiqarish, qadamni savob ishlar, ezgu amallar sari qo'yish, yurt kezib, aziz-avliyolar qabrini ziyorat

qilish, g‘ofillarni hushyor etish, har qanday holatda qalb ogoxligiga erishish — Naqshbandiyaning asosiy ma’naviy tarbiya usuli hisoblangan.

Naqshbandiya Bahouddin Naqshband hayotligidayoq keng shuhrat qozondi. Naqshbandiyani nazariy jihatdan ishlab chiqishda Muhammad Porso, Alouddin Attor xizmatlari katta bo‘ldi. Bu tariqatga faqatgina oddiy xalq emas, balki Buxoro va Samarqand ulamolari, Amir Temur avlodidan bo‘lgan shoh va shahzodalar kira boshladilar. XV asrdayoq Naqshbandiya Eron, Afg‘oniston, Misr, Hijoz, Shimoliy Kavkaz, Turkiyaga tarqala boshladi. Ayniqsa, "hazrati Eshon" unvoniga musharraf bo‘lgan Xoja Axror valiy — Nosiriddin Ubaydulloh faoliyati tufayli Naqshbandiyaning obro‘-e’tibori yana ham oshdi. Bahouddin Naqshband zamonida mansabdor shaxslar, shox-u amirlardan uzoq turish lozim deyilgan bo‘lsa, Xoja Ahror valiy davrida Naqshbandiya siyosiy doiralarga kirib bordi. Naqshbandiya XVI asrda Hindistonga tarqaldi. Bunda Bobo valiy, Xoja Boqibilloh (1563—1603), Axmad Sirhindiy (1564—1624) faoliyati yaxshi samara bergan. Ayniqsa, Ahmad Sirhindiy u yerda sunniylik yo‘nalishini mustahkamlash uchun Naqshbandiyadan unumli foydalangan. Naqshbandiyani Turkiyada yoyilishida Mulla Abdulloh Simaviy (1490-yilda vafot etgan), Ahmad Buxoriy va boshqa shaxslarning xizmati bor. Naqshbandiya XVI—XVII asrlarda Misr va Hijozga (Arabistonga) kirib boradi. Eronning Nishopur, Isfahon, Yazd shaharlariga tarqalib, shular orqali Falastin, Iroq, Iordaniyada ko‘plab tarafdorlarga ega bo‘lgan. Hindiston orqali u Indoneziya, Malayziya, Seylonga tarqaldi. Keyingi asrlarda Rossiya, Bosniya va boshqa Yevropa mamlakatlariga yoyilgan. Hozirda AQSH, Kanada, Avstriyada Naqshbandiya markazlari, xonaqolari, jamg‘armalari bor.

Bahouddin Naqshband haqida, uning ta’limoti xususida, naqshbandiy shayxlar to‘g‘risida talay asarlar yaratilgan. Birgina O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasining o‘zida naqshbandiyaga doir 195 kitob mavjud. Jumladan, Saloh ibn Muborak al-Buxoriyning „Anisu-t-tolibiyn va uddatu -s-solikiyn“ („Toliblar oshnasi va soliklar rahnomasi“) asarida (1383) Bahouddin Naqshbandning hayot tarzi, kashfu karomatlari va purhikmat so‘zlaridan namunalar beriladi. Bu asar „Maqomati hazrati Xojai Naqshband“ nomi bilan yuritiladi. Shu muallifning 4 qismdan iborat „Manoqibi Xoja Bahouddin Naqshband“ („Xoja Bahouddin Naqshbandning ta’rif va tavsiflari“) asari ham bor. Bulardan tashqari Bahouddin Naqshbandning suyukli xalifasi Xoja Muhammad Porso yozib qoldirgan bir necha asar orqali valiylikning ta’rifi, Bahouddin Naqshbandning tariqatdagi ilk davrlari, uning suhbatlari va hikmatli so‘zlari bilan tanishish, islom aqidasi, ibodat, shariat va tariqat ahkomlaridan baxramand bo‘lish mumkin.

Xoja Bahouddin Naqshband – islom olamining eng mashhur avliyolaridan biri, naqshbandiya tariqatining asoschisi. U milodiy 1318 yilning mart oyida Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi Qasri Hinduvon qishlog‘ida tug‘ilgan. Xalq orasida Bahouddin, Bahouddinjon, Xoja Bahouddin, Bahouddin Balogardon, Balogardon, Xo‘jayi Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan ham mashhur. Xoja Bahouddin Naqshbandning asl ismi Muhammaddir. Manbalarda u kishining otasi ham bobosi ham Muhammad ismida bo‘lgani qayd etiladi. Bahouddin Naqshbandning nasabi ota tarafdan Hazrat Aliga, ona tarafdan hazrat Abu Bakr Siddiqqa borib taqaladi. Xojalar avlodidan bo‘lgani uchun uning nomi oldiga xoja so‘zini ishlatish rasm bo‘lgan. Yoshligida otasi bilan birga kimxobga naqsh solish hunari bilan mashg‘ul bo‘lgani uchun Naqshband laqabi bilan mashhur bo‘lgan. O‘sha davrda matolarga naqsh ishlagan, naqsh solingan ko‘ylaklar yoki naqshli gilamlar to‘qigan kasb egalari naqshband deyilgan. Bahouddin” so‘zi “Dinning nuri” degan ma’noni anglatadi. Bu Xoja Naqshbandga keyinchalik berilgan faxrli unvon. Bahouddin Naqshband umri davomida bir necha pirning tarbiyasini olgan. Birinchi piri – Xoja Muhammad Boboyi Samosiy edi. Keksa shayx bu yosh muridini tarbiyalashni o‘rinbosarlaridan bo‘lmish Amir Sayyid Kulolga topshiradi. U tariqat bobida bilganlarini o‘rgatib bo‘lganidan keyin shogirdiga ijozat beradi. Bahouddin ilm istab, yassaviya tariqati shayxlarining mashhur vakillaridan bo‘lmish Qusam shayx oldiga, Naxshab, ya’ni hozirgi

Qarshiga boradi. Uch oy undan ta’lim oladi. Bahouddinning bu pirga ixlosi baland bo‘lgan, ayni chog‘da Qusam shayx ham uni o‘z o‘g‘lidek bilib, muridiga cheksiz hurmati tufayli umrining oxirigacha Buxoroda yashab, shu yerda vafot etadi. Manbalarning dalolat berishicha, u Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy (1103–1179)dan ruhiy tarbiya olgan. Bahouddin Naqshbandning umri asosan Buxoro va uning atrofidagi qishloqlarda o‘tgan. G‘aribona hayot kechirgan, faqat o‘z mehnati bilan kun ko‘rgan. Xizmatkor yoki qul saqlamagan. O‘z ta’limotini yaratishda Yusuf Hamadoniy va Abdulxoliq G‘ijduvoniy nazariyalariga asoslangan. Ta’limoti asosida: “Dil – ba yor-u, dast – ba kor” (“Ko‘ngil Allohda bo‘lsin-u, qo‘l ish bilan band bo‘laversin”), – degan shior yotadi. Tasavvufdagi har qanday tariqat kabi, xojagon-naqshbandiya tariqati ham o‘z g‘oyalari, tartib-qoidalari, odoblari va qat’iyatlarini shakllantirishda juda qadim rishtalardan suv ichgan. Ammo tariqatning butun mohiyatini uning bosh shiori bo‘lmish: “Dil – ba yor-u, dast – ba kor” hikmati hamda yana o‘n bir qoida belgilab beradi. Bu qoidalar “rashhalar”, ya’ni “tomchilar” deb yuritilgan. Rashhalar Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy va Bahouddin Naqshband taraflaridan asoslangan

ADABIYOTLAR:

1.Alisher Navoiy, To‘la asarlar to‘plami, 17-j., T., 2002;
2. Abul Muqsin Muhammad Boqir ibn Muhammal Ali, Bahouddin Balogardon, T., 1993;
3. Idris shoh, Naqshbandiy tariqati, T., 1993;
4. Buxoriy, Dilda yor, T., 1993;
5. Qayumov A., Bu og‘ang ila bo‘lg‘a-sen Naqshband…, T., 1993;
6. Izzat Sulton, Bahouddin Naqshband abadiyati. T., 1994;
7. Sultonmurod Olim, Naqshband va Navoiy, T., 1996.
8. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
9. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
10. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.13:08
11. https://religions.uz/uz/news/detail?id=746
12. https://azkurs.org/islom-talimoti.html?page=3